

TONG YULDUZI

№49 (66382)
2002 yil
2 dekabr,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan.

5-6-sinf bolalari «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishdi. Ayniqsa, 5- «V», 6- «B», 6-«V» sinflari obunada birinchi ikkinchi, uchinchi o'rinni egallashib, 100 foiz obuna bo'lishdi. O'zim shu maktabda o'qituvchi bo'lganim uchun aynan «Tong yulduzi»ga obuna bo'layotgan o'quvchilarimni savolga tutdim...

-Nima uchun «Tong yulduzi» ga obuna bo'layapsan?

-Buyuk insonlar yoshligi haqida, turli tanlov va festivallari yutuq va kamchiliklar haqida faqat «Tong yulduzi»dan ma'lumot olaman. «Tong yulduzi» jiddiy gazeta. Menga shunisi bilan yoqadi, -dedi g'urur bilan 6- «B» sinf o'quvchisi Jamshid Qosimov. - «Tong yulduzi» da boshqotirmalar, ertaklar, rivoyatlar, topishmoqlar va

Biz «Tong yulduzi» qoshidagi yosh qalamkashlar to'garagiga a'zomiz. Har dushanba kuni bosh muharrir bizga o'zining keng va katta xonasini bo'shatib beradi. Biz u yerda taniqli shoir va yozuvchilaru fan va

madaniyat arboblari bilan uchrashib, ijod mashaqqati, uning sir-asrorlari haqida suhbatlashamiz. Gazetani sinchiklab kuzatganlar «Bizning to'garak» sahifasida e'lon qilingan maqolalardan bizlar kimlar bilan nimalar haqida suhbatlashganimizni bilib oladi. O'z-o'zidan ma'lum, bizning yozganlarimiz gazetamizning har bir sonini bezaydi. She'r yoki maqolasi chiqqanlar osmonlarda uchib, «Tong yulduzi»ni hammaga tezroq ko'rsatgisi keladi. Ammo «Tong yulduzi»ni gazeta do'konlaridan topish qahratonda shaftoli qidirishdek gap.

LOTIN ALIFBOSINI OSON O'RGATAMAN DESANGIZ

tengdoshlarimiz ijodlaridan namunalar ham beriladi, - deyishdi Dilbar Isoqova, Gulchehra Kamolova, Dilnora Yusupovalar, uning gapini to'ldirib.

O'quvchilarimning lo'nda javobidan ko'nglim ravshan tortdi. Chunki o'zimning ham aynan shu gazetani o'qib savodim chiqqandi-da. Beixtiyor o'quvchilik yillarimni eslab, hamma sinf o'quvchilari albatta «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishsin. Buni men o'zim nazorat qilaman, deb yubordim.

Ertasiga obunachilarim soni yuzdan oshib ketdi. Ammo mening bu «qiyin- qistovim»dan bir o'quvchining otasi maktab direktori oldiga shikoyat bilan keldi. Direktorimiz bizda obuna majburiy emasligini tushuntirdi. Men esa... adabiyot o'qituvchisi sifatida sizning farzandingizga obuna bo'lish majburiy deb aytdim. Chunki aynan shu o'quvchim lotin alifbosidan qiynalardi-da. Birdaniga katta kitoblarni o'qib o'rgangandan ko'ra kichik lavha-yu she'rlar

O'qituvchilar diqqatiga

bosiladigan lotin yozuvidagi gazetani o'qib, lotinchani o'rgangani yaxshimasmi? Fikrimni tushungan otaxon farzandi uchun albatta bir yillik obuna puli topib berishga va da qilib chiqib ketdi va so'zining ustidan chiqdi.

Ha, aziz ustozlar, bilimi sayoz o'quvchilarni bilimdon qilaman desangiz, o'quvchilaringizni albatta «Tong yulduzi»ga obuna qilding. Yaltiroq qog'ozli saqichu turli shirinliklarga o'ch bolalar o'shalardan biroz tiyilib o'z gazetasiga yozilishsa, sizga ham oson, ularga ham yaxshi.

Ma'fura Usmonova, Yunusobod tumanidagi 273-maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi.

Yil bo'yi uyalganlar

bering, deb iltimos qilishga tushadi. Ham yozganlarini chiqarib, ham gazeta y u r g a n «iltimoschi»lar bu yil tahririyatning o'zida gazetaga obuna bo'lishga ahd qilishdi. To'garak a'zosi Mahmudjon Azimov 45 nafar yosh qalamkashlardan obuna pulini yig'ib olishga kirishdi. Rost, dastlab ayrimlarga bu pulni keltirish biroz qiyinchilik tug'dirdi. Ammo kun o'tib, o'ylab ko'rishib, o'sha pulni kimdir akasidan, kimdir singlisidan... degandek, topib berishdi. Endi bizni uyimizga «qidirib» boradigan sadoqatli gazetamiz bor.

Go'zal QOSIMJONOVA, «Tong yulduzi» qoshidagi yosh qalamkashlar to'garagi a'zosi, Toshkentdagi 116- maktabning 8- «B» sinf o'quvchisi.



Biz «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldik. Siz-chi?

Nachora, obuna bo'lganlar xursand, obuna ulashadigan tahririyat xodimlaridan uyalib

SADOQATLI GAZETAMIZ BOR

Eshitmadim deb turmanglar, eshitgach armonda qolib yurmanglar! Shoshiling, «Tong yulduzi»ga yoppasiga obuna bo'lgan maktab o'quvchilari uchun gazetaning tahririyat a'zosi, iqtisodchi olim Ergashvoy Sariqov televizor sovg'a qilishga jazm etdi. Ma'lumki, mamlakatimizdagi



o'n mingga yaqin maktab, litsey va kollejlarning har birida kamida ikki mingga yaqin o'quvchi bor. 1-11- sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi «Tong yulduzi» yosh avlodga mamlakat siyosati va g'oyasini

singdirib, barkamol inson bo'lishi uchun chin murabbiyga aylangan. Shunday ekan, yurt uchun yonib, kelajak uchun qayg'urib yashayotgan

zamonamizning tadbirkor ziyolisi Ergashvoy Sariqov hozircha televizor sovg'a qilishni niyat qildi. Iqtisodiyotdan saboqlar ko'rik-tanlovi muntazam yoritiladigan «Tong-yulduzi» bilimdonlari uchun sahiy olimning yana qator sovg'alari bor. Bilimni sinab, aqlni charxlab chin iqtisodchi bo'laman deganlar, shoshiling! «Tong yulduzi»ga obuna bo'lish davom etmoqda.

Sovg'a Navro'z bayrami arafasida topshiriladi.

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHIA VA TAMOYILLAR

(Davomi.)

Boshi o'tgan sonlarda.)

Xalq farovonligi

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi — xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. Ya'ni islohot — islohot uchun emas, inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak. Jamiyatimizdagi har qanday yangilanish, har qanday o'zgarish mohiyatida ana shu ezgu maqsad mujassamd.

Bu haqiqatni odamlar ongiga singdirish, keng aholi qatlamlarining islohotlar mohiyatini anglab yetishiga va uning faol ishtirokchisiga aylanishiga erishish zarur. Buning uchun esa ularning dunyoqarashini, hayotga, mehnatga, yerga munosabatini tubdan o'zgartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki farovon turmush asosi — erkinlik, tadbirkorlik va tashabbuskorlikdir.

Shuning uchun xalqimizda mulkka egalik hissini tarbiyalash, xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, o'z kuchiga ishonch tuyg'ularini kamol toptirish milliy mafkuramiz vazifalariga kiradi.

Tabiiy boyliklar, yer resurslari, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyati har bir fuqaroning ehtiyojlarini qondirish, o'zligini namoyon etish va bunyodkorlik qobiliyatini ro'yobga chiqarishning asosiy zaminidir.

O'zbekiston xalqidek mehnatkash, mirishkor, ishning ko'zini biladigan xalq o'z turmushini o'z qo'li bilan farovon qilishga qodir. Milliy istiqlol mafkurasi mohiyat e'tibori bilan fuqarolarimizda har qaysi inson va oila badavlat bo'lsa, jamiyat va davlat ham kuchli va qudratli bo'ladi, degan tushunchani tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim.

(Davomi bor.)

Men esimni taniganimdan buyon xo'jaligimiz markazida yangi do'konlar qurilayotganiga guvohman. Bu yaxshi albatta. Lekin bunday binolar orasida biz yoshlarning bilimimizni yanada charxlovchi, ma'naviyatimizni boyituvchi

yulduzi» haqida eshitdim va bu gazeta bilimimizni boyituvchi, dunyoqarashimizni kengaytiruvchi nashr ekanligini tushunib yetdim.

Istardimki, yangiyo'llik tengdoshlarim ham «Tong yulduzi»ni o'qisalar. Mutasaddi amakilar esa o'zlariga tegishli xulosa chiqarib, «Yangi

"YANGI HAYOT"DA GAZETA DO'KONI BORMI?

gazeta va jurnallar sotiladigan do'konlarning yo'qligi meni ranjitadi. Axir tuman yoshlari ham matbuotda chop etilayotgan yangilik va xabarlardan voqif bo'lib, dunyoqarashlarini kengaytirib borishlari lozimku. Ishonasizmi, bolalarimiz orasida «Tong yulduzi» nomli ularga mo'ljallangan gazeta borligini bilmaydiganlar ham bor. To'g'risi, men o'zim ham Toshkent shahriga o'qishga borganimdan so'nggina «Tong



hayot»imizda bittagina matbuot tarqatuvchi do'kon qurib berishsa, o'sha do'konda ko'plab gazeta va jurnallar qatori «Tong yulduzi» ham sotilsa, deymen.

Rasul KUSHERBOYEV,
Toshkent viloyati,
Yangiyo'l tumani.

Hozirgi kunda ayrim tengdoshlarim kitob o'qish, hunar egallashga emas, sigareta chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga ruju qo'yishmoqda. Buning oqibatida esa ota-ona va yaqinlariga bemehr bo'lib voyaga yetmoqdalar. Bu qusurlarning sababi nimada? Mening fikrimcha, ushbu illatlarning kelib chiqishi video ko'rishga riju qo'yishga borib taqaladi. Hozir deyarli har bir xonadonda videoappaturalar mavjud.

shafqat o'rnini qabihlik, razolat egallashi tayin. Yaqinda bir gazetada Rossiyadagi shaharlardan birida yashovchi

bir qiz o'z onasini bolta bilan chopib, sho'rva qilib qaynatgani haqidagi maqolani o'qib qoldim...

Filmlarimiz orasida odob-ahloq talablariga to'la javob bera oladigan, yoshlarni to'g'ri yo'lga soladiganlari ham bor. Shukabi voqealardan to'g'ri xulosa chiqarib olishimiz

va chet eldan kirib kelayotgan ongni zaharlovchi videokassetalardan voz kechishimiz kerak, deb o'ylayman. Zero, biz O'zbekistonimizning kelajagi ekanligimizni unutmaylik.

Alisher ISOMIDDINOV,
Alisher Navoiy nomidagi
Respublika Nafis san'at litseyining
9- «A» sinf o'quvchisi.

O'quvchi-yoshlar ijaraga videokasseta olib, har kuni biror yangi



film tomosha qiladilar. Filmga qiziqib ketib, darslarni ham unutadilar.


Ayrim bolalarning ota-onasiga, yaqinlariga bemehr bo'lib ulg'ayishiga ham video sabab. Vahshiyliklardan iborat bo'lgan «Matritsa», «Vamper», «Bled», «Gorod zambe» kabi kinofilmlarni ko'rgan bola qalbidagi mehr-

Men boshlang'ich ta'limni o'rta maktabda oldim. Baholarim yaxshi bo'lgani uchun o'qishni SamDU qoshidagi gimnaziyada davom ettirdim. Lekin u yerda o'qishim ko'pga bormadi. 8-sinf o'rtalariga kelib «gimnaziya yopilarmish» degan gap chiqdi. Bu o'quvchilarni darsdan sovub ketishlariga sabab bo'ldi. O'qituvchi nega dars qilmading, nega

GIMNAZIYA NEGA YOPILDI?

darsga kelmading deb urushsa, o'quvchilar, o'qiymanmi, o'qimaymanmi, endi buning nima farqi bor, baribir gimnaziya yopiladi-ku, deb javob qaytaradigan bo'lib qolishdi.

Keyin nafaqat o'qish darajasi pasaydi, o'qituvchilar soni ham keskin kamayib ketdi.




Ota-onalarning arizalari ham foyda bermadi. Gimnaziyaning yopilish sababi esa, aytishlaricha SamDuning pedagogik fakultetiga joy kerak emish. Lekin bu rostmi, yolg'onmi, hech kim bilmaydi.

Baribir gimnaziya yopildi. Ko'p o'quvchilar boshqa litsey va gimnaziyalarga

o'qishga kirdilar, ko'pchiligi esa qishloqlariga qaytib ketishdi. Men ham Nafis san'at litseyiga o'qishga kirdim. Litseyimiz juda yaxshi. Lekin baribir o'rgangan gimnaziya magaqaytgim kelyapti. Bu voqeaga institut mutasaddilari e'tibor beradilar, degan umiddaman.

Abdusalom
ABDURAZZOQOV,
Nafis san'at litseyining
9- «A» sinf
o'quvchisi.



Inson hayoti uchun giyohvandlik, uning indallosi - SPID kasali naqadar fojia ekanligini yaxshi bilamiz. Lekin oramizda buni bilaturib, giyohvand ko'chasiga kirib qolayotgan yoshlar ham yo'q emas.


maktab qayta tiklangani yo'q. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday vaziyatda o'quvchilar bekorchi bo'lib qolib, kunlarini ko'chada o'tkazishadi. Ayrimlari pul topish ilinjida o'zlarini turli yo'llarga urib ham ko'rishdi. Qandaydir yo'llar bilan pul topgan Sunnat va Rahimga o'xshaganlar esa pulini harom ishlarga sovrarmoqda. Zora, ushbu maktubimni o'qib, mutasaddi amakilar

"ZUM"DA GI BOLALAR QAYSI MAKTABNI O'TAYAPTI?

Bir kuni qishloq maktabida ikki yil birga o'qigan sinfdoshlarim Sunnat va Rahim yomon ayollar yashaydigan joyga borganliklarini aytib, maqtanib qolishdi. Ularning gapini eshitib nafratlandim, ham ularga rahmim keldi. Afsuski, qishloqda bu kabilar oz emas. Ularning bu holga tushishlariga esa o'zlaridan ham ko'proq kattalar aybdor, deb o'ylayman. Sababi, mana qariyb bir yil bo'libdiki, qishloq maktabini buzib tashlashgan, go'yoki qaytadan ta'mirlasharmish. O'quv yili oxirlab qolsa-da,

o'zlariga tegishli xulosa chiqarib, mas'uliyatlarini his qilgan holda chora-tadbirlar ko'rsalar. «Zum» qishloq maktabini zamonaviy maktablarga xos ta'mirlab, puxta bilim olishimizga imkoniyat yaratsalar. Axir, bekorchidan Hudo ham bezor-ku!

Zokir BOLLIYEV,
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumani, Muso Toshmuhammad Oybek nomidagi
96 - maktab o'quvchisi.






8 NAFAR O'QUVCHIGA BITTADAN „TONG YULDUZI“

XXX

- Ayni paytda gazeta va jurnallarga obuna bo'lish davom etyapti, - deydi *Toshkent shahar, Mirobod tuman xalq ta'limi bo'limi kutubxona fondi bo'yicha uslubchisi Gulchehra opa Siddiqova*. - Tumanimizda yigirmata maktab bor. Shulardan o'n bittasi rus, qolgan to'qqiztasi rus va o'zbek maktablaridir. Demak, «Tong yulduzi» o'quvchilari ham qo'shni tumanlarga nisbatan ozroq. Shunday bo'lsa-da, tumanimizda shu kunga qadar «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lgan o'quvchilar soni sakson nafardan oshdi. Bu albatta hammasi emas. Shu yilning oxiriga qadar yana ko'pgina o'quvchilar o'z gazetalariga obuna bo'ladilar.

Niyatimiz, har bir sakkiz nafar o'quvchi bittadan «Tong yulduzi» gazetasini o'qishlariga imkon yaratish.



XXX

- Bizning Mirzo Ulug'bek tumanimizda ham barcha matbuot nashrlariga, jumladan, «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lish qizg'in davom etyapti, - deydi *tuman xalq ta'limi kutubxonachisi Robiya opa Alimjonova*. - Tumanda 33 ta maktab bor. Shulardan sakkiztasi rus, yettitasi o'zbek, qolgani turli millat vakillari uchun mo'ljallangan aralash maktab hisoblanadi. Ayni paytda maktab rahbarlarining yig'ilishida ham obuna masalasini birinchi navbatga qo'yganimiz.

Deyarli har kuni maktab o'quvchilarining «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lganliklari haqidagi xabar keladi. Bu borada tumandagi 27-, 121-, 222-, 308-maktab o'quvchilari ancha faol ishtirok etishyapti.

Ozoda MUHAMMEDOVA yozib oldi.

TAHRIRIYATDAN:

Ayrim maktab rahbarlari «Tong yulduzi» gazetasini faqat 5-, 6-, 7-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan deb hisoblaydilar. Shuning uchun ham maktablarida gazetaga obuna bo'lish ancha oqsagan. Axir gazetamiz bolalar va o'smirlar uchun-ku. Shunday ekan, maktabning 1- va 11- sinf o'quvchilari ham Respublikamizda yagona bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishlari uchun imkoniyat topicllari shart.



ENG YAXSHI SOVG'A

Mening eng yaqin dugonalarim Sitora va Shahnoza. Ular juda yaxshi qizlar. Biz bir-birimizning uyimizga borib birgalashib dars tayyorlaymiz. Kitob o'qiyamiz. Hatto yumshoq o'yinchoqlar tikamiz.

Mening oyijonim yolg'iz o'zlarim va ukam Timurni parvarishlaydilar. Ikki smenada mehnat qilib, biz uchun barcha sharoitni yaratib beradilar. Har yili meni «Tong yulduzi» gazetasiga, ukamni esa «Gulxan» jurnaliga obuna bo'lishimizga ko'maklashadilar.

Yaqinda mening tug'ilgan kunim edi. Shu kuni uyimizga Sitora bilan Shahnoza kirib kelishdi. Qo'llarida esa o'zlarim tikkan yumshoq o'yinchoq va tabrik qog'ozi. Uning ichida esa «Tong yulduzi» gazetasiga 2003 yil uchun obuna qog'ozi bor ekan.

Tug'ilgan kunimda berilgan bu sovg'a meni juda quvontirdi.

*Nilufar QORABOYEVA,
Toshkent viloyati,
Qibray tumanidagi
3- maktabning
7- «B» sinf o'quvchisi.*

KITABI BOR GAZETA

Men Xorazm viloyatining eng chekka Gurlan tumanidagi qishloqlardan birida yashayman. Qishlog'imiz Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan chegaradosh.

O'tgan yili «Tong yulduzi» gazetasiga yillik obuna bo'lgan edim. Uning har bir soni o'z vaqtida qo'limga yetib keldi. Ayni paytda gazetani oilamiz bilan birgalikda o'qib borayapmiz. Undagi boshqotirmayu maqolalar, ichki sahifasidagi kitobcha bo'lib chiqayotgan she'rlar bizga juda yoqadi. Chunki lotin yozuvidagi kitoblarim soni ham ortayapti-da!

Kelgusi yil uchun yana «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'ldim. Bundan juda xursandman.

*Dilshod XAYTMETOV,
Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi
Furqat nomli maktabning
5- «A» sinf o'quvchisi.*

TEZROQ SHOSHILING!

Assalomu alaykum «Tong yulduzi». Men Yakkabog' jamoa xo'jaligida joylashgan «Katta arab» qishlog'idagi 33- tayanch maktabining 9-sinfida o'qiyman.

Har yilgidek bu yil ham o'z gazetamga obuna bo'lgan edim. Uning har bir sonini mazza qilib o'qib borayapman. Tengdoshlarimning maqolalariniyu she'rlarini kuzatib juda xursand bo'laman. Sababi, men ham adabiyotga qiziqaman. 2003 yilda yana «Tong yulduzi» gazetasiga uchun obuna bo'ldim. Barcha tengdoshlarimga ham tezroq o'z gazetangizga obuna bo'lishga shoshiling, deyman.

*Xosiyat BEGNAYEVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qamashi tumanidagi
33- maktabning 9- sinf o'quvchisi.*



BAXTNOMAMIZ

Hozirgi kunda huquqiy ta'lim-tarbiyani yaxshilash davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir.

Qonun-qoidani mukammal bilgan har bir inson o'z burchini ham yaxshi his qiladi. O'quvchining burchi esa o'qish, o'rganish. Shunday ekan, biz o'quvchilarimizni bilimdon bo'lishlari uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qilamiz.

Bu borada maktabimizda Konstitutsiyamizning o'n yilligiga bag'ishlab sinflararo tadbirlar bo'lib o'tyapti. «Konstitutsiyamiz-qomusimiz» mavzusida haftalik tashkil etildi. Haftalikda har bir sinf faol ishtirok etyapti. Ochiq tarbiyaviy

soatlar uyushtirilib, barcha qiziqqan o'quvchilar qatnashyapti.

Men rahbarlik qilayotgan 3- «B» sinf o'quvchilari ham «Konstitutsiya alifbosi» darsligini alohida mehr bilan o'qiyaptilar. Undagi har b i r

mavzuga qiziqish bilan qarayaptilar. O'quvchilarning huquqiy ta'limga intilishlari albatta biz ustozlarni xursand qiladi.

*Dilfuza ZOITOVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi
20- maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi.*

HUQUQIY BILIM SARI

Har bir mustaqil davlatning hayot qomusi- o'z Konstitutsiyasi hisoblanadi. Konstitutsiya orqali har bir mustaqil davlat o'zining mustaqilligini, chegaralari daxlsizligini,

Har bir inson huquqlarini bemaol himoya qila olishini isbotlaydi. Ana shunday himoyalarni o'zida mujassam etgan asosiy qonunimiz 1992 yilning 8 dekabrda qabul qilindi.

Konstitutsiyamiz 6 bo'lim, 26 bob va 128- moddadan iborat. Konstitutsiya so'zining ma'nosi o'rnatish, belgilash demak.

Hayot qomusimiz qabul qilingan kun - XII - chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI sessiyasida

yurtboshimiz ma'ruza qilib, Konstitutsiyamiz demokratik yo'l bilan tayyorlanganligi, unga yillar davomida sinovdan o'tgan umuminsoniy qadriyatlar o'z aksini topganligini alohida ta'kidlab o'tgandilar.

Mana o'n yildirki, Konstitutsiyamiz yurtimizning tinchligini mustahkamlab, adolatli, huquqiy davlat barpo etish uchun xizmat qilmoqda.

Ayni kunlarda barcha maktablarda bo'lganidek, bizning maktabimizda ham Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan katta tadbirlar, suhbatlar bo'lib o'tayapti. Biz bunday tadbirlar orqali huquqiy bilimimizni yanada boyitib borayapmiz.

*Zulxumor UMAROVA,
Toshkent shahar,
Hamza tumanidagi
216- maktabning
11- sinf o'quvchisi.*

Konstitutsiyamizning 10 yilligi oldidan

3 dekabr - Xalqaro nogironlarni himoya qilish kuni

Taqdiri azal Zuhra opani siylamadi. To'rt muchasi sog'lom, ishlab, gurillab yurgan ayol bir sabab bilan to'shakka mixlanib qoldi. Yetti yillik umrini

shiftga termulib o'tkazgan Zuhra opaning tortgan azoblari yolg'iz o'zlariga-yu Yaratganga ayon. Shunday bo'lsa-da, tushkunlikka tushmadilar. «Oramizda qanchadan-qancha imkoniyati cheklangan insonlar yashashadi.

Ularning aksariyati tushkunlikka tushib, o'zlarini hayotda ortiqcha odamlardek his qilishadi. Shunday onalar va bolalarni imkon qadar bir yerga jamlab, ularning ham hayotda o'z o'rinlari borligini isbotlayman», deya maqsad qo'yidilar, o'z oldilariga. Kerakli tashkilotlarga borib, eskigina bir bino olishga muvaffaq bo'ldilar va Toshkent shahar imkoniyati cheklangan ayollar va bolalar ma'naviyat va ma'rifat markazi tashkil qildilar. Keyinchalik binoni o'z kuchlari bilan ta'mirdan chiqarishib, yaqin atrofdagi nogironlar yashaydigan xonadonlarga birma-bir kirib, ularni markazga jalb qildilar. Farzandining kelajagidan umidsizlikka tushgan ayrim

ota-onalar e'tiroz ham bildirishdi. Zuhra opa esa o'zining iliq muomalasi, umidli rejalari bilan ularni ko'ndirdilar, farzandlarini uydan olib chiqdilar. Shu tariqa markazga 250 dan ziyod o'g'il-qiz jalb qilindi. Ularning yoshlari, qiziqishlari ham turlicha edi. Shularni inobatga olgan Zuhra opa 73-maktab bilan hamkorlikda markaz qoshida yordamchi maktab ham tashkil qildilar. Endilikda Barno Yunusova, Sasha Soldotkin singari mehribon ustozlar

saboq berayotgan bu maktabda o'ndan ziyod o'g'il-qiz tahsil olyapti.

Bundan tashqari, zardo'zlik, yog'och o'ymakorligi, yumshoq o'yinchoqlar,

rassomlik, kulolchilik, ingliz tili, ko'rpachilik, kosibchilik kabi o'quv kurslari

ham tashkil qilinib, bolajonlar o'z qiziqishlariga qarab Muborak Sodiqova, Sanobar Yusupova, Oybek Asomov, Faxriddin Sodiqov kabi ustozlaridan kasb-hunar

sirlarini o'rganib kelishyapti. Amerikaning IREX xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda ochilgan kompyuter sinfini tamomlagan 150 nafar bolaning qo'llariga sertifikat olgan kunlari markaz xodimlari, bolajonlarning o'zlari, ota-onalari uchun quvonchli voqea bo'ldi. Chunki uzzukun bir joyda qadalib, zerikkanidan g'inshib o'tiradigan farzandining ham qo'lidan ish kelishini, o'z hunari orqasidan kun ko'ra olishi mumkinligini his qilish, ota-onalar uchun katta

baxt edi-da... Markaz doimo bolalar bilan gavjum bo'ladi. Ayniqsa, zardo'zlik hunarini o'rganishga ishtiyoqmand qizlar juda ko'pchilik. Oralarida 3 oy davomida bu

bo'yicha ishtirok etgan 13 yoshli Feruza Yo'ldoshxonova, rassom Nafisa Bodomxonova, yog'och

o'ymakorligi bo'yicha qatnashgan Oybek Asomovlarning «Faxriy yorliqlar» bilan taqdirlanganliklaridan ustozlari faxrlanib

yurishadi.

San'atga ixlosmandlar markaz qoshidagi «Oltin nihol» guruhida O'zbekiston Davlat konservatoriyasi o'qituvchisi Barno Musaboyevadan saboq olishadi. 1 - Iyun xalqaro bolalarni himoya qilish kunida ular ilk bor sahnaga chiqib, tengdoshlariga konsert qo'yib berishdi.

Zuhra opa yaqinda xalqaro tashkilotdan grant olib, Toshkent viloyatining Parkent tumani So'qoq qishlog'ida ham markazning kichik bo'limini ochdilar. U yerda yuzdan ziyod nogironlar zardo'zlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik o'quv markazlarida hunar

«Aviasozlar» hamda «Otchopar» bozorlari ma'muriyatiga, «Beta» choy, «Farmayed» firmalariga, Toshkent shahar hokimiyatiga va yana ko'plab xususiy tadbirkor-

laridan behad minnatdormiz.

Markazni tashkil qilishdan asosiy maqsadim - imkoniyati cheklangan ayollar va bolalarni boqimandalikdan chiqish edi. Bu maqsadimga to'la erishdim, desam mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bu yerda hunar

o'rgangan ayollar va bolalar o'z mehnatlari evaziga maosh olishyapti. Muhimi, jamiyatimiz uchun kerakli, to'laqonli inson ekanliklarini his qilishyapti...

Gapda emas, amalda ish qilishni xush ko'radigan Zuhra opa she'r ham yozarkanlar:


Mangu uyqu elitar bir kun,



Sunnat Mirzaboyevning chizgan rasmlari chet ellik mehmonlarni ham lol qoldirdi.



MAQSADLARI RAQAT EZGULIK



16 yoshli Zokir Sodiqov markaz qoshidagi yordamchi maktabning 2 - sinfida tahsil olyapti. Shuningdek, yog'och o'ymakorligiga ham ancha qo'li kelishib qolgan. Badiiy kitoblarni ham o'zi bemalol o'qiyapti.



O'z uyida «Usta va shogird» o'quv markazini ochib, dugonalariga zardo'zlikdan saboq berayotgan Zuhra Aliyeva shu qizcha bo'ladi.



Dilfuza Muslimovani ish ustida ko'rsangiz, matonatiga tasannolar aytishingiz tayin.



Markazga chet ellik mehmonlar tez-tez kelib turishadi. Zuhra opa Rahmatullayevani davraga olib turgan bu mehmonlar kun chiqar yurt - Yaponiyadan tashrif buyurishgan.



11 yoshli Diyor Hoshimov ham juda iste'dodli bola. Markaz xonalarining birini uning rasmlari ko'rgazmasi bezab turibdi.

hunarining hadisini olib, o'z mahallalarida ham «Usta va shogird» o'quv kurslarini ochayotganlari ham talaygina. 12 yoshli Zuhra Ashurova o'z hovlisida zardo'zlik o'quv kursi ochib, juda ko'plab dugonalariga, hatto o'zidan kattalarga ham hunar o'rgatyapti.

Markazga qatnaydigan o'g'il-qizlar ko'plab ko'rik-tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallab, ustozlar ishonchini oqlagan. 2001 yilda shahar miqyosida o'tkazilgan ijodkor bolalarning «Zukko avlod» tanlovida zardo'zlik yo'nalishi

o'rganadilar.

Yaqinda markaz Amerikadagi imkoniyati cheklangan ayollar va bolalar tashkilotining bir bo'lagiga aylandi. Bu dunyo miqyosidagi anjumanlarda markaz a'zolari ham o'z ishlari bilan qatnashish huquqiga ega bo'ldilar, degani...

- Ikki yil unchalik katta fursat emas. Shu qisqa muddatda shuncha ishlarni qilishga ulguribsizlar,- deya suhbatga chorladik Zuhra opani bolalar bilan gavjum xonalarni, ularning ish namunalarini birma-bir ko'zdan kechirarkanmiz.

- O'ksik ko'ngillarni ko'tarish, ularga dalda berishning o'zi bo'lmaydi. Bu borada bizdan beminnat yordamini ayamay kelayotgan «Bolalar» fondiga, «Tufin», «Motorolla», «Ling» qo'shma korxonalariga, Qizil yarim oy jamiyatiga,

Sochin yozib yig'lamas qizim.

Qabrim uzra tortilib tuproq,

Nahot ochiq ketadi ko'zim?

Belin bog'lab o'g'lim yig'lamas.

«Ayajon» deb menga talpinib.

Yillar o'tib biror bir kishi,

Chiroq yoqmas menga topinib...

Kechalari bedor va behol,

Beshik quchib alla aytmadim.

Bu dunyoda yig'ladim, kuldim,

Lek «Onaman»! deya aytmadim...

-Endi esa bunday she'r yozmayapman,-

dedilar kulib, Zuhra opa.- Ushbu

maskanni hayotimning mazmuni, sabot va

matonat bilan hunar o'rganayotgan, bilim

olishga intilayotgan o'g'il-qizlarni esa o'z

farzandlarim deb bilaman. Shu ma'noda

men serfarzand, baxtiyor ONAMAN!..

Feruza JALILOVA.



Umurtqa pog'onasi rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar maxsus maktab

RO'ZLARDA QUVONCH

internatlarda bilim olib, sog'liqlarini, qaddi-qomatlarini tiklab ulg'ayadilar. Bu borada mamlakatimizda e'tiborli ishlar qilinmoqda. Xalqaro nogironlarni himoya qilish kuni arafasida Buxoro shahridagi shunday insonparvar maskanga kirib kelganimizda, bahri dilimiz ochilib ketdi. Odatda rivojlanishida kamchiligi bor bolalar huzurida bo'lganingda taningni tushkunlik egallaydi. Murg'ak nigohlarning chora top, degandek nigoronligi seni ezib yuboradi. Ammo hovlidagi gullarning anvoyi bo'yidanmi, maskan sardori, tajribali pedagog, umrini farzandlar ma'naviyatini kamol toptirishga bag'ishlagan Sancha opaning fayz, tarovatidanmi, mehribon onamiz, qarddon opa-singlimiz huzurida topadigan qoniqish hissini tuydik.

Sen sog'lomsan, ko'rinishingdagi nuqsonlar

ham asta - sekin yo'qolib, go'zal insonlar bilan bir safda turasan, degan ishonch yog'ilib turardi, shogirdlari qurshovidagi Sancha opadan. Shuning uchun ham ozoda kiyingan bolajonlar baxtiyor kapalaklardek hovli sahnida uchib- qo'nib yurishibdi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib salom berganini aytmaysizmi. Inson bo'lib tug'ilganidan, ozod va obod mamlakatda qadr topayotganidan shukronalik bisyor edi ularning siyosida. Hayajonlanmay, quvonmay bo'ladimi bularni ko'rib, olamiga

anjomlar aro o'quv xonalari oddiy maktablardan farq qilarkan-da, degan xayolda edik. Chunki sinf xonalarining yarmida partalar bo'lsa, yarmida bolish qo'yilgan maxsus kushetkalar edi... Bolajonlar charchamasligi uchun yotib o'qisharkan. Har dars orasida maxsus gimnastika mashg'uloti o'tkazilar ekan. Darsdan keyin tibbiy muolajalar qabul qilisharkan. Uqalash, elektr bilan davolash, parafin, gimnastika bilan shug'ullanish ertangi kuniga ishongan, kelajagidan umid qilgan bolajonlarning o'qish va hayot tarzi

ishladim. Hozir oddiy tarbiyachiman. Internatdagi ko'ngli o'ksik bolajonlar olamiga zavq-shavq, yashashga ishonch bag'ishlay olsam, deb turaman. Internatimiz 5-10 yil oldin ko'p ishda orqada qoldi. 1999 yilda Sangcha Najmiddinova bizga rahbar bo'lib keldilaru ishimizga, yashash tarzimizga ma'no va mazmun kirdi. Axir butun viloyat maorifiga bosh bo'lib ishlagan Sancha opa baland pastni tushunadigan, ham madaniy, ham ma'naviy, ham moddiy jihatdan o'zimizni tiklab olishimizga imkon yaratigan inson ekanligiga ishongandik. Mana,

boshlig'i Omonov O'tkir Nasrullayevich 80 ming so'm pul ko'chirganlari... Ta'mirlashga, darsliklar olishga ham 200 ming so'm o'tkazganlar. Mazali ovqatlarimiz uchun oshxonalar trestiga ham katta rahmat. Sangcha opa bu borada tinmaydilar... Rang ko'r, hol so'r, deganlaridek, bolajonlarga boqib, bu dargohda mehribon, shirinso'z, inson qadrini tushunadigan oliyanob kishilar mehnat qilayotganidan quvondik.. Bu yerda yashayotgan bolajonlar o'zlarining sog'lig'ini yaxshilash barobarida ikkinchi ona -ustozu tarbiyachilar bilan bag'ri butun, ko'ngli to'q.

KONGILDA YUPANICH

kirib... Sangcha opa Bahronova esa sevimli gazetamiz tahlamlarini varaqlab, stol ustidagi bolalar nashrlarini ko'rsatib, shu gazeta va jurnallar-da bizlarni butun Respublikamiz o'qituvchi va o'quvchilari bilan bog'lab turadigan mo'jiza, deb qalbimizdagi kasbimizga bo'lgan g'ururni jo'sh urdirishdan tinmasdilar. Ikki og'iz shirin so'z, ishonchli nigoh odamni odam qiladi, deganlariga yana ishondik. Bizni internat rahbari yotoqxonalar, o'quv xonalari, dam olish, sport zallari bilan tanishtirdilar. Bu tanishuv o'z uyi, o'zining qarddon go'shasida har bir eshik tutqichi-yu, deraza oynalarigacha e'tibor bilan qarovchi xonadon bekasining faxru iftihorini namoyish qilishiga o'xshardi. Biz esa shirin ertakka tushib qolgandek har bir xona, yo'lak, ehtiyotlik bilan foydalanilayotgan asbob-


ekana... Oshxona oldida Xabiba opa Isayevani uchratdik. O'zining 40 yil umrini shu internatga bag'ishlagan opa «Umrinni bolalarsiz, shu internatsiz tasavvur qila olmayman», - deydilar. O'zbek tili va tarix fanidan o'qituvchi, direktor o'rinbosari vazifasida

ko'rib turganingizdek, bugungi kunga kelib, sharoitimiz yaxshilandi, besh mahal issiq ovqat, yetarli darsliklar, yana sevimli gazetamiz «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishimiz uchun O'zbekiston Milliy banking Buxoro bo'lim

Internatda 25 nafar tibbiy xodim kecha-yu kunduz ularning xizmatida. «Qariyalarni qadrlash» yili munosabati bilan o'tkazilgan tadbirda bolajonlar umrini 30-40 yilini shu dargohga baxshida etganlarga guldastalar tutishdi. Bilim va sog'liqni tiklash dargohida faoliyat ko'rsatayotgan turli to'garak a'zolari o'z ijod namunalaridan tuhfa etishdi. Biz ham, aziz Sancha opajon, Sizga, Siz orqali kelajak avlodning sog'lig'i bilan qayg'urib, mungli ko'zlarga quvonch shu'lasini baxsh etayotgan qarddonlaringizga hotirjam hayot, sihat-salomatlik, mehnat mashaqqatlarining rohatini tatishdek baxtni tilab qolamiz!

Umida

ABDUAZIMOVA,
Nodira MIRZAYEVA.



Men bu yil birinchi sinfga chiqdim. Avvallari juda sho'x,

DOIRAMNING BORLIGI

to'polonchi bola edim. Hozir esa to'polon qilishga vaqtim ham yo'q.

Maktab, ayniqsa, yurtboshimizning bergan sovg'alari - o'quv anjomlari, kitob-daftar bilan to'latilgan chiroyli papka menga juda yoqdi. Sinf rahbarimiz E'tibor opam bizni iliq qarshi oldilar.

Birinchi chorakni a'lo baholar bilan yakunlaganimiz uchun ustozimiz bizni hayvonot bog'iga, qo'g'irchoq teatriga olib bordilar.

Avvallari badiiy kitoblarni onam, Shahzoda opamlar o'qib berishardi. Endi esa ularni o'zim bemalol o'qiyapman. Hatto opamning nomiga keladigan «Tong yulduzi»ni ham hech qiynalmay o'qiyman. Bo'sh vaqtimda futbol, tennis o'ynayman, doira chalish jonu dilim. Yaqinda doiramga atab bir she'r

yozdim.

Doiram dum-dum etar,
Ovozi ko'kka yetar.

Doiramning borligi,

Mening ko'nglim chog'ligi.

Dilmurod RIZAYEV,

«Orom» nomli

bog'cha-maktabning

1- «D» sinf

o'quvchisi.



USTOZIMGA O'XSHASAM

Men sportga juda qiziqaman. Ayniqsa, kurash, karate sport turlari menga ko'proq yoqadi. Shuning uchun ham «Jar» sport majmuasida tashkil etilgan karate mashg'ulotiga qatnab, Davron aka Toshmuhamedovdan karate sirlarini qunt bilan o'rganyapman. Ular karate bo'yicha

jahon chempioni bo'ladilar. Shuningdek, qora belbog' sohibilar. Davron aka juda mehribon, shu bilan birga o'ta qattiqqo'llar. Ustozimizdan ko'p yaxshi narsani o'rgansak bo'ladi.

Men ham kelgusida karate sport turuni mukammal o'rganib, Vatanim bayrog'ini baland ko'tarsam, deyman.

Ulug'bek
NURIDDINOV,
Toshkent viloyati,
Toshkent
tumanidagi
Hamid Olimjon
nomli
12- maktabning
5- «V» sinf
o'quvchisi.



YANGI YILGA YANGI QO'SHIQLAR BILAN

Diqqat! «Sharq» yoshlar madaniy markazida (sobiq Gollivud klubi) 18-dekabr 18-00 da «7 dan 70 gacha» ko'rsatuvining «Salom, yoshlar!», «Yangi yil oqshomida» deb nomlangan bayram soni O'zbekiston san'atining yorqin yulduzlari ishtirokida tasvirga tushiriladi. Dastur muxlislarini ushbu kechaga taklif etamiz. «Tong yulduzi» gazetasining haqiqiy targ'ibotchisiga aylangan «7 dan 70 gacha» ko'rsatuvining bayram soni 30 dekabr kuni namoyish etiladi.

Aziz bolajonlar, tengdoshingiz Kamola Pardayevani oynayi jahondagi qo'shiqlari orqali yaxshi taniysiz-a? Orangizda u bilan do'st tutinmoqchi bo'lganlar ham oz bo'lmasa kerak.

Sirdaryolik Kamolaning sizni biz bilmagan yana qanday qirralari bor, unga kimlar yordam beradi, shular haqida u bilan suhbat qurdik:

-Kamola, siz bayram g'ijjak chalishni tadbirlarida ko'p qatnashasiz, bu ma'krab dagi o'qishlaringizga halal bermaydimi?

-Halal beradi, lekin qoldirgan darslarni o'zlashtirib olishga harakat qilaman, qolaversa, ustozlarim ham qo'shimcha dars o'tib berishadi. O'rtoqlarim ham qarab turishmaydi. Mening eng yaxshi ko'rgan fanim - matematika. Bu fandan dars beradigan o'qituvchimiz juda yaxshilar, shuning uchun ham bu fanni juda yaxshi ko'raman.

- Ayting-chi, san'atga qachondan beri oshnosiz?

- Besh yoshimdan beri. Pianino chalishni ustozim Baxtiyor Asanov o'rgatganlar,

esa Adila

Fayozovadan o'rganganman. Shoir Hayot Shodmon esa qo'shiqlar yozib beradi.

- Yana nimalarni yoqtirasiz?

- Sayr qilishni. Yozgi ta'tilda Xorazmga, Shahrisabzga, Buxoroga borib boy merosimizni, bobolarimizning qurgan minoralarini tomosha qilib qaytdim. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur bobomizning haykallariga havas bilan boqdim. Bizning Gulistonimizda ham xuddi

shunday haykallar qurilsa deyman. Men bu haqda Prezident bobomizga maktub yo'lladim. Javob xati ham keldi, tez orada Guliston shahrida ham bobolarimizning haykallari qurilar ekan.

- Sirdaryoda qanday ulug' bobolarimiz, momolarimiz o'tgan, ular haqida eshitganmisiz?

- Tariximizni

2002 yil «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi «Kamalak» bolalar tashkilotining birinchi anjumanida mutloq g'oliblikni qo'lga kiritdi.

- Harakat qilaman, izlanaman, yanayam yuqoriga intilaveraman, - deydi u.

- Rejalaringiz, «Tong yulduzi» gazetasi orqali tengdoshlaringizga tilaklaringiz, - degan savolimizga:

-2003 yilda Turkiyada butun dunyo bolalarining «Jujuqlar» festivaliga borishga jiddiy tayyorgarlik ko'ryapman, - deb javob berdi.

ASLIDDIN suhbatlashdi.

Suratda: «Kamolot»

YOIHMK raisi Botir

Ubaydullayev va bolalar

tashkilotining eng faol

a'zolari «Qaldirg'och»

qo'shig'ijirochilari

Kamola Pardayeva hamda

Shohruh Abdiyevlar.

SIRDARYONING BO'LALAJAK BULBULI



KAMOLANING TILAGI

Har dushanbani intiqlik bilan kutaman. Chunki bu kun «Tong yulduzi» chiqadi-da. U mening eng sevimli gazetam. Gazetadagi turli mavzudagi maqolalar, o'yinlar, krossvordlar menga juda yoqadi. Tilaklarim, dunyodagi eng baxtli bolalar bo'lmish O'zbekiston bolalarining yuzlaridan tabassum arimasin. Qalblarini quvonch tark etmasin.

ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

Bu insonning Yer sayyorasi oldidagi, umumbashariyat oldidagi xizmatlari haqida hali ko'p asarlar yozilajak. Ushbu hikoya esa dengizdan qatra yanglig' shu tarixiy

Bilimim shu yerga yetib keldikim, Bilimsizligimni endi tushundim.
Abu Shukur Balxiy

shaxs haqida ozroq tasavvur berishga urinadi, xolos.

Odamlar novcha bo'ladi, pakana bo'ladi va shu so'zlarda kamsitish yo'q aslo. Raketa texnikasining otasi Sergey Korolyov ham Napoleon Bonapart kabi ulug' pakanalardan edi. Ustiga-ustak bukchayib yurar, bo'yni baquvvat, ammo kalta bo'lganidan osmonga boshqalardak boshini orqaga tashlab qaray olmas, balki yer ostidan boqardi. Ehtimol, shu bois doimo nimadandir norozi, sertashvish bir qiyofada ko'rinaradi. U osmonga chindan ham tashvishlanib boqardi. Chunki barcha ishi, butun faoliyati u bilan bog'liq edi-da.

Kosmik raketa gulduros olov uzra yuqori intilganida Korolyov befarq tomoshabin sifatida qarab turolmadi. Uning butun hayoti, orzu-umidlari, muvaffaqiyatsizliklari, inson qudratidan faxrlanish tuyg'ulari ana shu qisqa lahzalarga jo bo'lardi. Bunday paytlari Korolyovning borlig'ini unga shunday buyuk baxt, g'alaba nash'asini bergan yaqin-yiroqdagi odamlardan behad minnatdorlik hislari qamrab olardi.

Bu lahzalar uzoq maslahatlashuvlar, raqiblar bilan bahsu munozaralar, yorqin fikrlaru asabiy janjallar, o'chirib


tashlangan chizmalar, sinov paytlaridagi dahshatli gulduroslar, Kremlning salobatli xonalaridagi qisqa ma'ruzalar, Baykonurdagi mo'jazgina uychada

kechgan uyqusiz tunlar yakuni edi. U bir umr osmonga tikilib o'tdi, ammo o'shanday damlarda xayolidan nimalar kechgani hech kimga ma'lum emas.

Korolyovning butun hayoti, faoliyati Baykonur bilan bog'liq. U shu yerdan fazoga yo'l ochdi. O'zbek tilida bu nom



«Boyqo'ng'ir» yoki «Boy odam qo'nib o'tgan joy» ma'nosidagi «Boyqonur» shaklida ham qo'llanadi. Bu yer sayyoramizning fazoviy darvozasi bo'lishi



taqdiri azalda bitilgan ko'rinaradi. Mana sizga bir qiziq misol: «Moskovskiy gubernskiy vedomosti» gazetasining 1848 yilgi sonlaridan birida quyidagi xabar bitilgan: «Meshchan Nikifor Nikitin inson Oyga uchishi mumkin, degan dahriyona fikrlari uchun olis Baykonur qishlog'iga surgun qilinsin». Shu voqea tasodif ekaniga ishonasizmi? Bepoyon Rossiyada boshqa joy qurib qolganmidi? Taqdiri azalning qo'li ko'rinib turmayaptimi bu o'rinda?

Korolyovning hayotida g'aroyib bir ziddiyat ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Bir tomondan olimning umri - davrning aynan aksidir. Korolyovning hayot yo'li Rossiyaning bir odam misolida jamlangan tarixi, ummonning tomchi timsolida ko'rinishi, biroq ummon ham, tomchi ham Quyoshni bir xilda aks ettiradi. Korolyov davrning achchiq sharobini Rossiya bilan birga oxirigacha sipqordi. Jamiki azob-

uqubatlarga pak-pakana bo'ynini tutib berdi. Ammo ayni paytda u hamisha o'z davridan bir qadam oldinda edi. 20-yillarda planyorlarda uchganida, 30-

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.
Sharq naqli

yillarda raketalar qurganida, keyinroq o'zga olamlarga parvoz haqida orzu qilganida ham shunday bo'lgan. 1957 yili Yerning birinchi sun'iy yo'ldoshi uchirilishi dastlabki qarashda mohirona hal etilgan texnik vazifa, qiziqarli, g'ayrioddiy va yangicha bir tajriba bo'lib ko'ringandi. Bu hodisaning mahobatli oqibatlarini anglab yetish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ldi. Bir tomonda sodda kampirlar kosmik startlar ob-havoga halal bermasmikan deb tashvishlansa, ikkinchi tomonda olisni ko'ra oluvchi siyosatdonlar sun'iy yo'ldosh Yer sharidagi butun siyosiy iqlimni o'zgartirib yuborganini his etishardi. Orada uch yarim yil o'tib, inson fazoga parvoz qilganidan keyin esa yangi tarixiy davr boshlangani hammaga yaqqol ayon bo'ldi.

Korolyov past bo'yli edi dedik, lekin qizig'i shundaki u doimo boshqalardan balandroq ko'rinaradi. Uni nihoyatda qattiqqo'l, ba'zan o'ta badjahl bo'lgan deyishadi. Nachora, ish og'ir, turli fe'l-atvorli odamlar bilan muomala qilishga to'g'ri kelardi. Bosh konstruktordan barcha hayiqar, baqirib-chaqirib yuborganida ham unga gap qaytarishga hech kim jur'at qilmasdi. Chunki jonli «bomba»ga tegishni kim ham xohlaydi?

(Davomi bor).

Po'lat MO'MIN

3-Bo'lim

IBN SHIFONING NAFSIBUZUQLIK HAQIDAGI O'GITLARI

Ortiq semirish
Umr kemirish.

Hakkalar nafsing,
Qil uning aksin.

Tuzalsa nafsing,
Kular gul fasling.

Ochko'z tag'in yer,
O'z sog'lig'in yer.

Yemoq aralash -
Jonni arralash.

Ovqat ye asta,
Bo'lmasan xasta.

Ko'rsang ochko'zni,
Chetga ol o'zni.

Semirgan xo'ppa,
Ish bermas ko'pda.

Suqatoy og'zi,
Bo'lmas hech rozi.

Avval qil jazm,
Bo'larmi hazm.

Qaysi ta'magir
Tuzalgan axir.

Nafsingni ko'ndir,
Bu senga jo'ndir.

Nafsing o'rgatar,
Kasal o'rnatar.

Nafsingga o'zing,
O'tkazgin so'zing.

To'ygandan keyin,
Kim deydi, yeyin?

IBN SHIFO - ULASHAR DAYO

(o'gitalar)

Semiz va ozg'in
Tuzatsin og'zin.

Ko'p dori ichish,
Bo'lmoqlik idish.

O'g'irlab yegan,
Hech to'yimas ekan.

Kim bo'lsa xo'ra -
Ichidir o'ra.



Tabobat hikmatlarin
Joylab baytlar aro,
Beray maslahat - o'git,
Bo'lgay deb yaxshi da'vo.

Nafsing har tomon
Tortsa ko'p yomon.

Bo'lsa ishtahang,
Bo'lmagil nahang.

Jig'ildon boshqa,
Va vijdon boshqa.

Kim nafsi buzuq,
Sog'lig'i uzuq.

Har bitta mechkay
Sog'liqdan kechgay.

Ortiqcha lazzat
Berarmi izzat?

TOPISHMOQLAR

Tusi oppoq paxtaday,
G'ichirlaydi taxtaday.
Ko'rganlar misli un der,
Semiradi undan yer. (Qor)

Yeru ko'kni changitib,
Bor jonzotni gangitib,
Eshikni qo'lsiz ochar,
Xayolni olib qochar. (Bo'ron)

Ko'k gumbaz o'qin sochar,
Hamma panaga qochar. (Do'l)

Chimchilaydi ayozda,
Hech bo'lmaydi u yozda. (Sovuq)

Bobomurod CHORIYEV,
Surxondaryo viloyati, Angor tumani,
«Mustaqillik» jamoa xo'jaligi.

O'ZING

8 8 8 8

BO'YA

8 8 8 8



Sonlar bo'yicha rasmni bo'yang:

- 1 - qizil.
2 - to'q yashil.
3 - jigarrang.
4 - och yashil.
5 - ko'k.

- 6 - olovrang.
7 - sariq.
8 - havorang.
9 - pushti.

Tuzuvchi: Hilola
EGAMBERDIYEVA,
Toshkent shahar,
Akmal Ikromov tumanidagi
312 - maktabning
7- «A» sinf o'quvchisi.

Qatra

MO'YQALAMNING MATOSI

Rassom tabiat qo'ynida, ko'm-ko'k o'tlarning, daraxtlarning, suvlarning rasmini katta ishtiyok bilan chizardi. U go'yo bor hayotini ana shu rasmlariga bag'ishlardi. Chizayotgan rasmdan ajib bir go'zallik axtarardi. Lekin mening e'tiborimni uning chap qo'lidagi turli xil rangli mato o'ziga tortdi. U rassomning mo'yqalamini tozalab turuvchi mato edi. Rassom o'z dunyosini yaratib, xursand bo'lib, chizgan rasmdan bahra olardi. U chizgan rasmdan qidirayotgan go'zallikni men uni chap qo'lidagi kamalak ranglarini mujassam etgan matoda ko'rdim. Rassom o'zi bilmagan holda buyuk asar yaratganini bilmasdi.

Shahnoza PIRMATOVA,
Nafis san'at litseyining «Suxandon» guruhi
o'quvchisi.



O'qi, qiziq!

Dunyoda eng yeb to'yimas mavjudot ninachi bo'lib, u 2 soatda 40 ta pashshani va mayda chumolilarni yeb bitirar ekan.

xxx

Bitta zag'izg'on har yili kuzda 40 ta yong'oq og'irlar ekan. U yong'oqlarni ko'mib qo'yar va xohlagan vaqtda olib yerkan. Ko'p hollarda esa 38-39 ta yong'oqni yer va bitta yong'oq qolib ketarkan. Qolib ketgan yong'oq o'sha yerdan unib chiqarkan.

Shahzoda RIZAYEVA,
Orom nomli bog'cha-maktabning 4-sinf o'quvchisi.



Eng, eng, eng...!

Olimlarning hisobiga ko'ra Pushkin o'z asarlarida 21.197 ta, Shekspir salkam 20.000, Servantes 18.000 ga yaqin, Alisher Navoiy esa 1.378.660 ta betakror so'z ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz nafaqat turkiy, balki forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo'g'ul va boshqa tillardagi so'zlardan ham mahorat bilan foydalanaganlar.

Dilshod G'OFUROV,
Shayxontohur tumanidagi G'ofur G'ulom
nomli 169 - maktabning 7- «A» sinf
o'quvchisi.



Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahilaladi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida ofset usulida
bosildi.

Korxonalar manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № F-1058
Gazetani
Muhabbat MAXSUDOVA
sahifaladi.
Naybatchi:
Feruz ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75

Bizning to'garak

ORZU

Men niholman, bol, sharbatga to'lgim keladi,
Ona xalqim, senga xizmat qilgim keladi.
Ta'rifingni tilga olib, she'r bag'ishladim,
Lozim bo'lsa, jonni fido qilgim keladi.

Men niholman, osmonlarga yetgim keladi,
Dunyo bo'ylab, sayohatga ketgim keladi.
Lekin avval ona xalqim, yurt oldidagi,
O'z farzandlik burchim ado etgim keladi.

Gulchehra RAHMONOVA,
Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi
15 - o'rta maktabning 8 - «B» sinf o'quvchisi.



KONSTITUTSIYA

Konstitutsiya - bu bizning,
Baxtimiz qomusidir.
U har bir o'g'il-qizning,
G'ururi, nomusidir.

Unda mujassam bo'lgan,
Qonun, qoida, nizom.
Bizni tartibda chorlar,
Demakki, u -intizom.

Burchimiz ado etib,
Qonunlarni saqlaymiz.
Vatanga sodiq bo'lib,
Ishonchini oqlaymiz!

Muyassar ILHOMOVA,
Toshkent shahridagi 228 - maktabning 7 - «G» sinf o'quvchisi.



YILLAR

Umr go'yo oqar suvdek o'tar ekan,
Ezgulikning jilovidan tuting dillar.
Yillar emas, faqat yillar kutar ekan,
Iltimosim - yana ozroq kuting yillar.
Bolaligim xotirotga aylanmasin,
Orzularim parvozlarga shaylanmasin.
Yana biroz sho'xlik qilsin, kulsin dillar,
Iltimosim - yana biroz kuting yillar.
Bola kulsa, nazarimda dunyo kular,
Shodon quv nab, bog'-rog'lardan teray gullar.
Bolalikning ruxsoriga to'lsin dillar,
Iltimosim - yana ozroq kuting yillar...

Ma'rifat TEMIROVA,
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani,
Miraki shaharchasidagi 2 - ixtisoslashgan
maktab internatining
9 - «A» sinf o'quvchisi.


KUMUSH QISH

Orta qolib oltin kuz,
Sepin yoydi kumush qish.
Borliqqa sovuq tushib,
Dalada tugadi ish.

Daraxtlar xorib-tolib,
Asta uyquga ketdi.
Qushlar to'p-to'p bo'lishib,
Issiq o'lkaga yetdi.

Oq un sepganday birov,
Erta tong tushar qirov.
Shu tariqa kumush qish,
O'zin etar namoyish.

Hilola
EGAMBERDIYEVA,
Toshkent shahar,
Akmal Ikromov tumanidagi
312 - maktabning
7 - «A» sinf o'quvchisi.



ONA YURTIM

Ona yurtim, tuprog'ingni ko'zga surtib,
Mehr to'la qalbim bilan suydin bugun.
Ajdodlarim izi qolgan har gardingdan,
Chin onalik mehrini men tuydin bugun.

Ona yurtim, onam deya atay seni,
Bolam, deya ulg'aytirding boshim silab.
Ilk parvozga shaylangan bir polaponing,
Sen hayotga shaylantirding boshim silab.

Ona yurtim, muqaddassan sen bizlarga,
Tuprog'ingda Temurlarning izi qolgan.
Farzandlaring, dilbandlaring kalomining,
Har satrida Navoiyning so'zi qolgan.

Dilafro'z XUDOYBERDIYEVA.

СЕНИ СОБИРДИК, ОШИП ҚОР!



Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi
229 - maktabning 2 - «B» sinf o'quvchisi Muzaffar SOBITOV
chizgan rasm.



Qadim zamonda qirol va
qirolicha yashashar edi.
Ularning yakka-yu yolg'iz
qizlari bor edi. Kunlardan bir
kuni yovuz jodugar uni
sehrlab, atirgulga aylantirib
qo'yibdi. Qirolicha juda xafa
bo'libdi va shu kundan
boshlab gulga xuddi o'z
farzandidek g'amxo'rlik qila
boshlabdi. Qizidan ayrilib
qolgan qirol bor zahrini

qirolchaga sohibdi: «Sen beholgina bosh egibdi. Qirol,
yomon onasan, qizimizni darhol qirolichani topib
ehtiyotlay olmading. kelinglar, deya f a r m o n
Endi mening

ATIRGUL MALIKA
Nemis xalq ertagi

qizim yo'q. Seni ham
k o ' r i s h n i
i s t a m a y m a n,
k o ' z i m d a n
yo'qol»...

Ertasi kuni qirol
boqqa kirib qarasa,
gurkirab ochilib
turgan atirgul so'lib
qolibdi. Qirol gulni
ohista silab, senga nima bo'ldi,
deb so'rasa, atirgul «Onamsiz
menga hayot yo'q» deb,



beribdi. Qirolicha
atirgulga qo'lini
tekkizishi bilan yana
asl holiga qaytib,
go'zallashib ketibdi.

Bir kuni qirollikka
yoshgina musiqachi
yigit kelibdi. Uning
kuylarini tinglagan
saroy ahli iste'dodiga
tasannolar aytishibdi.
Qirolicha undan bog'dagi
atirgul yonida kuy chalib

berishini iltimos qilibdi.
Chunki qizi musiqa
tinglashni juda yaxshi ko'rar
ekan-da.

Yigit mayin kuy boshlabdi.
Atirgul kuyning ohangiga
mast bo'lib ohistagina
chayqala boshlabdi. Uning bir
chiroyiga o'n chiroy qo'shilib,
hammaning ko'z o'ngida
sohibjamol qizga aylanib
qolibdi. Qirol va qirolicha
quvonchining cheki yo'q
emish. Yosh musiqachi yigit
esa hammaga yoqib qolibdi va
malika bilan uning to'yini
tantana qilishibdi.

Muqaddas OCHILOVA
tarjimasi.
Xorazm viloyati,
Xonqa tumani.